Uchquduq tuman hokimining
2024-yil 15-iyuldagi
82-5-76-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Maktab yoshidagi bolalarni hisobini yuritish va ularni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq jalb etish bo‘yicha tumandagi umumiy o‘rta ta’lim maktablariga biriktirilgan mikrohududlar ro‘yxati

T/r	Maktab raqami	Biriktirilgan hudud nomi
1	1-maktab	“Altintov” ovul fuqarolar yig‘ini hududidagi Qaynarbuloq, Kavsarbuloq, Taraqqiyot, Tog‘ shamoli ko‘chalari
2	2-maktab	“Bozdun” ovul fuqarolar yig‘ini hududidagi Qo‘rg‘ontog‘, Baraka ko‘chalari, Juzquduq ovuli
3	3-maktab	Imom Buxoriy ko‘chasi 1-7-uylar. O‘zbekiston ko‘chasi 1-, 1a, 2-, 2a, 3-, 4-, 4a, 5-, 18-uylar. Geologlar ko‘chasi 1-20-uylar. Aytim ko‘chasi 1-6-uylar.
4	4-maktab	Saxovat ko‘chasi 1-28-uylar. Tog‘li ko‘chasi 1-, 9-, 11-, 13-, 15-, 2a, 4a, 6a, 8a, 10a-uylar. Navro‘z ko‘chasi 1-28-uylar. Tinchlik ko‘chasi 1-, 21-, 23-, 25-uylar Oltintog‘ ko‘chasi 1-, 18-, 20-, 22-, 24-, 26-, 17a-uylar. Pushkin ko‘chasi 1-, 24-, 26-, 28-uylar.
5	5-maktab	“Yo‘lchilar” ovul fuqarolar yig‘ini hududidagi Gulshan, Obod, Nurobod, Yuksalish, Shukrona ko‘chalari.
6	6-maktab	“Uzunquduq” ovul fuqarolar yig‘ini hududidagi Iftixor, Shodlik ko‘chalari.
7	7-maktab	Xalqlar do‘stligi ko‘chasi 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-, 12-, 13-, 14-, 15-, 16-, 17-, 18-, 19-, 20-, 21-, 22-, 23-, 24-, 25-, 26-, 27-, 28-, 29-, 43-50-, 51-, 52-, 53-, 54-, 55-, 56-, 57-, 58-, 64-, 65-66-, 67-, 68-, 69-, 70-, 71-, 72-uylar. Istiqlol ko‘chasi 130-134-uylar.
8	8-maktab	“Shalxar” ovul fuqarolar yig‘ini hududidagi Kuntay ovuli Kengdala, Qumtepa ko‘chalari, “Uchquduq-2” qo‘rg‘oni.

9	9-maktab	Mustaqillik ko‘chasi 1-17-uylar. Qizilqum ko‘chasi 1-28-uylar.
10	10-maktab	Mustaqillik ko‘chasi 1-17-uylar. Mustaqillik ko‘chasi 17a, 17б Qizilqum ko‘chasi 1-28-uylar. Amir Temur ko‘chasi 1-23-uylar. Fazogirlar ko‘chasi 1-5-uylar. Sharafli ko‘chasi 1-9-uylar. Tog‘li ko‘chasi 1-, 2-, 2a, 3-, 4-, 4a, 5-, 6-, 6a, 7-, 27-uylar. Navro‘z ko‘chasi 1- 27-uylar. Konchilar ko‘chasi 1-105-uylar.
11	11-maktab	“Mingbuloq” ovul fuqarolar yig‘ini hududidagi Madaniyat, Yangi O‘zbekiston, Adolat, Bahor, Oqtosh, Gulobod ko‘chalari.
12	12-maktab	“Shalxar” ovul fuqarolar yig‘ini hududidagi Birlik, Ko‘rkam, Farovon, Bunyodkor ko‘chalari.
13	13-maktab	“Kokpatas” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Sharqiy kon, Nurafshon, Guliston, Qirqquduq ko‘chalari.
14	14-maktab	“Ko‘kayaz” ovul fuqarolar yig‘ini hududidagi Yangi hayot ko‘chasi, Ko‘kayaz, Aqbaytal ovullari.
15	15-maktab	“Uzunquduq” ovul fuqarolar yig‘ini hududidagi Buzaubay ovuli Temiryo‘lchilar ko‘chasi.
16	16-maktab	“Altintov” ovul fuqarolar yig‘ini hududidagi Buranbay ovuli.
17	18-maktab	Bo‘ston ko‘chasi 1-25-uylar. Muxtor Avezov ko‘chasi 1-30-uylar Tinchlik ko‘chasi 1-25-uylar. Shukrona ko‘chasi 1-, 10-xonadonlar Tog‘li ko‘chasi: 1-, 2-, 2a, 3-, 4-, 4a, 5-, 6-, 6a, 7-, 27-uylar.
18	19-maktab	“Altintov” ovul fuqarolar yig‘ini hududidagi Baltay ovuli
19	20-maktab	Cho‘lguli 1-24-uylar Cho‘lguli 27-, 28-, 28v-uylar Cho‘lguli 30-, 39-, 22a-uylar Xalqlar do‘stligi 76-, 77-, 78-, 79-, 80-, 81-, 82-uylar A.Temur 37a, 37b, 37v-uylar Yo‘lchilar yotoqxonasi

Izoh: Tuman markazida joylashgan ta’lim rus tilida olib boriladigan 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, birinchi navbatda, o‘z mikrohududidagi va tumandagi barcha rus tilida ta’lim olish layoqati bo‘lgan maktab yoshidagi bolalarni ta’limga qamrab oladi.

Tuman markazida joylashgan ta’lim qozoq tilida olib boriladigan 4-, 9-umumiy o‘rta ta’lim maktabi tuman markazida istiqomat qiladigan barcha qozoq millatiga mansub maktab yoshidagi bolalarni (birinchi navbatda o‘z mikrohududidagi) ta’limga to‘liq qamrab oladi.

Tuman markazida joylashgan ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan 7-, 10-, 18-, 20-umumiy o‘rta ta’lim maktablari, birinchi navbatda, o‘ziga biriktirilgan mikrohududidagi maktab yoshidagi bolalarni ta’limga to‘liq qamrab oladi.

NAVOIY VILOYATI UCHQUDUQ TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 15-iyul | 82-5-76-Q/24 | Uchquduq tumani hokimligi

Uchquduq tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 27-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomning 39-bandiga asosan, tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish jarayonida umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1.“Uchquduq tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”gi qarori loyihasi regulation.gov.uz elektron platforma orqali 2024-yil 25-mayda ID 99512-son bilan muhokamadan o‘tkazilganligi inobatga olinsin.

2.Uchquduq tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman hokimi o‘rinbosari (N.Muratov), tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (S.Sayfidinov), tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish, o‘quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish vazifasi topshirilsin.

4.Belgilansinki, tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida umumta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish uchun mas’ul hisoblanadi.

5.O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Uchquduq tumani bo‘limi (A.Hamidov), mahalla va ovul fuqarolar yig‘ini raislariga maktab yoshidagi bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb etish jarayonida tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi hamda umumta’lim muassasalariga amaliy yordam berish tavsiya etilsin.

6.Tuman hokimligi axborot xizmati (R.Qodirova) hamda “UCHQUDUQ” gazetasi tahririyatiga ushbu qarorni ommaviy axborot vositalari orqali yoritish tavsiya etilsin.

7.Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari N.Muratov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **S.Xamroyev**